


**ЗАМОНАВИЙ ТИШУНОСЛІК
ВА АЦАБІЁТШУНОСЛІКНИНГ
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ**



ТОШКЕНТ

Biroq shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, xorijda tilshunoslik qanday sur'at bilan rivojlanayotgan bo'lsa, tillarni o'qitish borasidagi tadqiqotlarning doirasi va samarasи ham shunchalik yuqoridir. Aksincha, o'zbek tili ilmiy-nazariy jihatdan keng tadqiq qilinayotgan bo'lsa ham, uning amaliy yo'naltirilishida yutuqlarimiz barmoq bilan sanarli. Til o'qitish metodikasini rivojlantirish, bunda xorij tajribalaridan o'rinni foydalanish masalasi kun tartibida turibdi.

Bugungi kunda ona tili darsliklari "Til – me'yor – nutq" me'zonini asosida yaratilmoqda. Unda maktabdagisi til ta'limini harakatga keltiruvchi uch omil – o'qish madaniyati, uqish va matn yaratishi madaniyati asos qilib olinadi. Darsliklarda ijodiy o'quv topshiriqlariga, musobaqa shaklidagi o'yinlarga, topishmoqlarga keng o'rinni berilgan. Lekin nazardan chetda• qolayotgan bir masala borki, bu uy vazifasi masalasidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ona tili samarasini o'quvchining mustaqil matn yarata olishi bilan baholanishi tufayli darsliklarimizdan o'rinni olgan uygaga vazifa topshiriqlari asosan matn yaratishidan iborat bo'lib qoldi. Aslida metodikada topshiriqlarning turlarini doimo almashtirib turishga alohida e'tibor berish kerak. Yana bir jihat borki, o'quvchilar yaratgan matnlarni bir dars davomida (10-12 daqiqa) tahlil qilish imkoniyati cheklangan. Bu esa metodikada e'tirof etilgan "topshiriqlar natijalarini hamisha tekshirish, o'quvchining qo'lga kiritgan har bir yutug'ini rag'batlantirish lozim. Bu o'z navbatida o'quvchi qiziqishlarining tobora ortib borishiga yo'naltiradi" degan ko'rsatmaning amalga oshmayotganligini dalillaydi.

Shuning uchun biz ona tili ta'limida xorijiy tillarni o'qitish amaliyotida mavjud bo'lgan uyg'a vazifalar uchun "Workbook" kitoblariga o'xshash risolalar yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mustaqil yurtimiz rivoji bilimli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo'llarini puxta o'zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko'nikmasiga ega bo'lган ongli fuqaroga ehtiyoj sezayotganligi bugungi globallashuv davrida yanada yaqqol sezilmoqda.

Xorij tajribalari natijasida til ta'limiga tatbiq qilinayotgan ta'lim texnologiyalari o'quvchi-darslik-o'qituvchi faoliyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda. Jamiatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o'qishga o'rgatishga yo'naltirilganligi bois o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash zarurki, o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallashlarida o'rgatuvchiga aylanadi.

Prezidentimiz Konstitutsiyaning 23-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasida istiqlol davrida yetuk, barkamol avlod kamolga yetganligini ta'kidladilar. Vaholanki, yetuk, barkamol avlodga saboq berayotgan o'qituvchi, murabbiy, ustoz shogirdlaridan ikki-uch qadam oldinda yurishi, zamonidan ilgarilashi taqozo qilinadi. Fan va texnikaning mavjud yangiliklari ularni darslar mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali ta'lim oluvchilarning zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Ma'rifat 2015 yil 6-dekabr, 98-son.
 2. Odilov Y. Ona tili – oily qadriyat. // Til va adabiyot ta'limi. 2015. № 2. B.51-53.
 3. Nurmonov A. Davlat tili haqidagi qonun va uning tarixiy ahamiyati. Tanlangan asarlar. II jild. –T.: Akademnashr. 2012. – 432-b
 4. Rajabova I., Do'sjanova G. Ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni. // Til va adabiyot ta'limi. 2008 № 1. B. 7-15
 5. Shodmonqulova D. Ona tili ta'limida keys texnologiyasidan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi. -2015. -№5. –B. 17.
 6. Muhitdinova X. Til ta'limida videomatnlar qanday uyg'unlashadi. // Til va adabiyot ta'limi. -2015. -№8. –B. 15.

JIV VAZIFASI VA INNOVATSIYA

p.f.n. SH.YULDASHEVA

D. URAZBAYEVA
NDPI magistranti

O'tgan asr oxirida ona tili mazmunining o'ta ilmiyligi, o'quvchilarning foydali amaliy ishlar bilan shug'ullanish o'rniga, sansanoqsiz grammatik qoidalar, ta'rif va tushunchalarni "o'zlashtirish" bilan band bo'lib qolganligi bois ta'lim mazmunini yangilash muammosi tilshunos va metodist olimlar tomonidan kun tartibiga qo'yilgan edi. Ona tili darsliklarida ilmiy ta'rif va qoidalar kamaytirilib, amaliy ish turlariga asosiy e'tibor qaratilganligi muammo yechimi sari qo'yilgan ilk

qadamlar bo‘lgan edi. Ona tili ta’limida ham o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plandi: barcha fanlar qatori ona tili mazmuni, o‘qitish metodologiyasi va metodikasi takomillashtirildi. Shunday bo‘lsa ham, o‘zlashtirish respublikada 60 foizga ham ko‘tarilmayapti. Aslida zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdan iborat. Ona tili ta’limidan olayotgan natijalarimiz esa salmoqli bo‘lmayapti.

Prezidentimizning: “O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak”⁵ – degan talablari texnologiyalar, innovatsiyalar shiddat bilan kirib kelayotgan davrimizda yanada dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatish tizimining takomillshtirilishi⁶, zamonaviy ta’lim vositalari yordamida sun’iy muhitda xorijiy tillarni zo‘r ishtiyoq bilan o‘rganayotgan, burro-burro gapirayotgan o‘quvchilarning ona tili ta’limida ham yangi texnologiyalar, innovatsiyalar qo‘llanishini talab qilishi tabiiy hol. Vaholanki, qisqa muddatlarda xorijiy tillardan ham og‘zaki, ham yozma nutqi rivojlanayotgan o‘quvchilarimizga ona tilini o‘qitishda orqada qolmoqdamiz.

Demak, ona tili o‘qitish tizimida e’tibordan chetda qolgan ba’zi uzvlar, masalalar borki, ularni aniqlash, tizimdagagi ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra e’tibor qaratish, tadqiq qilish zarur.

Ko‘p yillik kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, ona tili ta’limida uy vazifasi masalasi dars jarayoniga qo‘yilayotgan talablarga qiyoslaganda nazardan chetda qolmoqda. Binobarin, uy vazifasi ta’lim mazmunining muhim va ajralmas qismidir.

Uy vazifasi qancha va qanday berilishi haqida metodikada qat’iy ko‘rsatma mavjud emas. Odadta ona tili darsliklarida mavzu uchun ajratilgan o‘quv materiallari oxirida uyga vazifa uchun “Uyga topshiriq” (5-sinf) “Uyga vazifa” (6-7-8-9-sinflar) tarzidagi qaydlar va mashq-topshiriqlar beriladi.

⁵ Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1X сессиясида сўзлаган нутқидан, 1997 йил 29 август. Баркамол авлод—Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.7.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

Biz tadqiq qilayotgan masala haqida K.Usmanova shunday yozadi: “...1-4-sinflarda 10 ta o‘quv fani bo‘yicha har bir fandan o‘rtacha 20 minutlik uy vazifasi berilsa, o‘quvchi bir kunda 1 soat-u 20 minut vaqt sarflaydi. 5-9-sinflarda esa 20 ta o‘quv fani bo‘yicha har kuni 6 soatdan dars bo‘lganda, har bir fandan 25 minutlik uy vazifasi berilsa, o‘quvchi uni bajarish uchun bir kunda 2 soat-u 30 minut vaqt sarflaydi. Vaholanki, fan o‘qituvchilari o‘quvchilarga 20-25 minutlik uy vazifasi berishmaydi. Masalan, ona tilidan mavzu bo‘yicha matn tuzish yoki insho yozish topshirig‘i uyga vazifa qilib beriladi. Ammo o‘quvchiga na matn tuzish qonun-qoidalari, na bu matnda qo‘llanishi lozim bo‘lgan leksik yoki grammatik material belgilab beriladi, sinfda ham uy vazifasini berishdan avval uni qanday bajarish haqida ko‘rsatmalar yoki tayanch materiallar berilmaydi”⁷. Iqtibosdagi ayrim fikrlarni istisno qilganda, (sinfda uy vazifasini berishdan avval uni qanday bajarish haqida ko‘rsatmalar berilmasligi borasida tajribali o‘qituvchilarimizning aksariyatida bu qusur uchramasligini aytib o‘tish o‘rnini) haqli e’tirozni ma’qullamaslik mumkin emas. Darhaqiqat, amaldagi ona tili darsliklarimizda matn yaratishga doir topshiriqlarning miqdori anchagini. Misol tariqasida 5-sinf ona tili darsligidan quyidagi aniqladik:

T.r.	Mashq t.r.	Matn mavzusi
1.	5-mashq	Bugungi ozod va obod hayotimiz haqida fikrlaringizni yozing
2.	9-mashq	Mustaqillik tufayli tilimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida hikoya yozing
3.	20-mashq	“Ozod va obod diyorum” mavzusida kichik xikoya yozing.
4.	60-mashq	“Saxiy kuz keldi” mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda ishlatalilgan tinish belgilarini izohlang
5.	64-mashq	O‘zingiz tanlagan biror rasm asosida hikoya tuzing. Tuzgan hikoyangizga sarlavha toping hamda og‘zaki so‘zlab bering
6	94-mashq	“Qarisi bør uyning parisi bor” mavzusida matn tuzing. Unda so‘roq olmoshlari ishtirot etgan so‘roq gaplardan foydalananing
7	99-mashq	Bobongiz, buvingiz yoki keksa qo‘snilaringiz bilan shahrinzing (qishlog‘ingiz) tarixi haqida suhabatlashing. Suhabatning mazmunini qisqacha yozing. Unda so‘roq yuklamalaridan foydalaning.
8	103-mashq	“Agar sharmisor bo‘lmayin desang qilmagan ishni qildim dema” (“Qobusnomalar”dan) hikmati mazmunini ifodalovchi hikoya tuzing va uni o‘rtoqlaringizga o‘qib bering

⁷ Усманова К. Уй vazifasini dozlabar muammo. // Til va adabiёт таълими. -2007. 2-сон. -Б. 77-79.

9	107-mashq	“Men kelajakda kim bo‘lmoqchiman” mavzusida insho yozing. Inshoda, albatta, istak gaplar ishtirok etsin
10	117-mashq	“Men ardoqlaydigan fazilat” mavzusida matn tuzing. Undagi gaplar tarkibida kelayotgan bo‘laklarga diqqat qiling
11	122-mashq	“Dam olish kunida” mavzusida kichik hikoya yozing. Undagi gaplarda ishlatilgan kesimlarni izohlang
12	132-mashq	Rasm asosida “Otalar so‘zi –aqlning qo‘zi” mavzusida matn tuzing. Uni tuzish jarayonida egalarga alohida e’tibor bering
13	136-mashq	“Yurtimizni bog‘ga aylantiramiz” mavzusida hikoya tuzing. Unda yig‘iq va yoyiq gaplardan foydalaning
14	149-mashq	“Vatanimga xizmat qilaman” mavzusida hikoya tuzing. Unda to‘ldiruvchilar ishtirok etsin
15	158-mashq	Tabiat manzarasi haqida kichik hikoya yozing. Tabiatning qanday va qaysi jihatlari diqqatingizni jalb etadi
16	171-mashq	O‘zingiz qatnashgan bayram, to‘y yoki kechalarni tasvirlab hikoya tuzing. Unda uyushiq bo‘laklar va umumlashtiruvchi so‘z ishtirok etsin
17	180-mashq	Yaqinlaringizga xat yozing. Unda qadrli, hurmatli, aziz, mehribon kabi so‘zlar bilan kelgan undalmalarni qo‘llang.
18	192-mashq	Rasm asosida “O‘zbekiston XXI asrda” mavzusida matn tuzing. Unda qo‘shma gaplardan foydalaning va ularni izohlang
19	205-mashq	“Bobomning o‘gitlari” mavzusida matn tuzing. Unda ko‘chirma gaplardan foydalaning, ayrimlarini daftarlaringizga yozing
20	209-mashq	“Dadam bilan suhbat” mavzusida dialog tuzib, daftaringizga yozing.
21	214-mashq	“Nonni isrof qilmang!” mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda darak, so‘roq, buyruq va istak gaplardan foydalaning
22	223-mashq	Menimcha, nazarimda, afsuski, demak, xullas so‘zlari ishtirokida “Maktab o‘quvchisi qanday kiyinishi kerak?” mavzusida bahs o‘tkazib, taassurotlaringiz asosida hikoya yozing.
23	242-mashq	“Gulxan” jurnalidan istalgan matn olib undagi kelishik qo‘shimchalari qo‘llangan so‘zлarni kelishiklar tartibida ko‘chiring
24.	256-mashq	“Bizning sinfimiz” mavzusida matn tuzing. Unda miqdor va tartib sonlar ishtirok etsin
25.	267-mashq	Hikoya tuzing. Unda ishlatilgan fe’llarga diqqat qiling
26.	271-mashq	Eng yaxshi ko‘rgan adabiy qahramoningizga maktub yozing. Maktubda foydalilanigan fe’llarning zamonini aytинг.
27.	278-mashq	Onangizga uy ishlariда qanday yordam berishingiz haqida hikoya tuzing. Unda hozirgi zamon fe’llaridan foydalaning

28.	281-mashq	Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz? Shu haqda kelasi zamon fe’llari ishtirokida hikoya tuzing
29.	284-mashq	Uyda kitobning ahamiyati haqida matn tuzing. Unda ishlatilgan fe’llarning shaxs-sonini aniqlab, gapirib bering.
30.	313-mashq	Qo‘shma so‘zlar ishtirokida kichik bir matn tuzing
31.	99-dars. 5-topsh.	Uyda “Yaxshilik nima?” mavzusida matn tuzing. Unda qo‘shma, juft, takroriy so‘zlardan foydalaning.
32.	329-mashq	Tarixiy obidalarimiz haqida bilganlaringizni hikoya tarzida yozing. Unda ishlatilgan so‘zлarni izohlashga hozirlik ko‘ring
33.	347-mashq	Rasm asosida matn tuzing, unli tovushlarga tavsif bering.
34.	355-mashq	Til, tish, lab, bo‘g‘iz, o‘pka kabi nutq a‘zolarining joylashuviga va ularning nutq tovushlarini hosil qilishdagi o‘rnini haqida ixcham matn tuzing.
35.	367-mashq	Odob haqidagi fikrlaringizni daftarga yozing. Gaplarda ishlatilgan burun tovushlarini izohlang.
36.	116-dars. 5-topsh.	O‘zingiz sevgan badiiy asar qahramoniga maktub yozing.
37.	388-mashq	Rasm asosida matn tuzing. Gaplardagi a va o tovushlarining talaffuzi hamda imlosiga diqat qiling
38.	406-mashq	“Ko‘chat ekib bog‘ qiling” mavzusida matn tuzing. Unda q va g‘ undoshlari ishtirok etgan so‘zlardan foydalaning
39.	413-mashq	Hafta kunlari haqida hikoya tuzing. Unda nb (mb) harflari yonma-yon kelgan so‘zlar ishtirok etsin
40.	416-mashq	O‘zingiz yashab turgan qishloq (shahar) yoki mahalla nomining kelib chiqishi va ma’nosini buva, buvilaringiz yoki ota-onangizdan so‘rab bilib, yozing.
41.	420-mashq	Halol va harom mavzusida o‘z fikrlaringizni yozma bayon qiling.
42.	438-mashq	“Ajdodlar merosi” mavzusida uy inshosini yozing. Rasmidan foydalaning.
43.	442-mashq	“Do’st – do’sting oynasi” mavzusida mulohazalaringizni yozing
44.	450-mashq	Tarjimai holingizni yozing. Unda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga qat’iy amal qiling.
45.	462-mashq	“Stadionda” mavzusida hikoya yozib keling. Unda tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlardan foydalaning
46.	466-mashq	“Kamtarlik ulug‘ fazilat” mavzusida hikoya tuzing. Unli tovushlarning aytilishi va imlosiga alohida diqqat qiling
47.	470-mashq	Bolalarga bag‘ishlangan teleko‘rsatuvlarning biriga maktub yozing. Unda ishlatilgan undosh tovushlarga izoh berishga hozirlaning.

48.	478-mashq	“Yurtimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar” mavzusida mulohazalaringizni yozing.
49.	535-mashq	Akademik litsey, kollej haqida bilganlaringizni yozma ravishda bayon eting
50.	572-mashq	Rasmga qarab “Maktab bog‘ida” mavzusida hikoya tuzing. Fe’llarni uchala zamonda turli shaxs-som qo‘shimchalari bilan qo‘llang

Jadvaldan ko‘rinadiki, 5-sinf o‘quvchilari yil davomida uygaz sifatida 50 ta matn yaratishi kerak. Tanlangan mavzular o‘quvchilar yoshiga mos keladi. Shu yoshdagagi o‘quvchilar qiziqishlariga muvofiq tanlangan. Muhimi, ma’naviy-ma’rifiy qadr-qimmatga ega. Rasm asosida yaratiladigan ayrim matnlar uchun tayanch so‘zlar tavsiya qilingan. Biroq o‘quvchilarni matn yaratishga tayyorlash, matn tuzish qonun-qoidalari bilan tanishtirishga doir ko‘rsatmalar aks etmagan. Bu ta’lim natijasini kafolatlashga to‘siq bo‘ladi.

Yaratiladigan matnning talab darajasida bo‘lishi topshiriqlar bajarishga o‘quvchini bosqichma-bosqich tayyorlab borishga bog‘liq. Shuning uchun ham uygaz vazifa uchun yozma matn yaratish topshiriqlarining muayyan miqdorini saqlab qolish, ularning bajarilishi uchun metodikada sinalgan tayyor matnlar ustida ishslash (matnni kengaytirish, matnni ixchamlash) usulini qo‘llash kutilgan natijani berishi mumkin.

Aksariyat matn yaratishga doir topshiriqlarni xorijiy tillarni o‘rgatishda qo‘llanilayotgan har xil mashq va topshiriqlar turlaridan foydalangan holda yangilariga almashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ingliz tilini o‘qitish amaliyotida “WORKBOOK” kitobiga o‘xshash uyda bajariladigan mashq va topshiriqlar uchun maxsus risola yaratilsa, o‘quvchi nuqul darslikdan materialni qayta yozib chiqish o‘rniga 25-30 daqiqa davomida o‘rganilgan mavzu doirasidagi o‘yin texnologiyalari, jadvallar, sxemalar, rasmlar bilan bezatilgan har xil topshiriqlarni bajarishi mumkin. Biz ona tili bo‘yicha kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan majburiy ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi loyihalari, ta’lim metod va usullari tajriba-sinovdan o‘tayotgan jarayonda uygaz vazifa masalasiga ham e’tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz. Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili kafedrasasi qoshida tashkil etilgan “Yosh metodist” to‘garagi a’zolari: o‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi magistrleri, bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalaridan bir guruhi uygaz vazifalar uchun yangicha mashq va topshiriqlarni tayyorlab Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Xo‘jayli tumanidagi 62-son umumta’lim mакtabida tajriba-sinovdan o‘tkazmoqdalar. Eksperimentator o‘qituvchilar va o‘quvchilar Ispring va MytestX, Hotpotatoes dasturlarida tayyorlangan uygaz vazifa topshiriqlarini ijobjiy baholamoqdalar. Tajriba-sinov davomida topshiriqlarning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinib, ular takomillashtirilmoqda. O‘quv yili oxirigacha darsliklardagi (takrorlash va mustahkamlash darslaridan tashqari) mavzular yuzasidan materiallarni taqdim qilib borish rejalashtirilgan. Tahlillar olib borilayotgan tadqiqot farazlarining to‘g‘ri ekanligini dalillamoqda.

Ona tili ta’limiga xorijiy tajribalarni, til o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini o‘rinli tatbiq qilish ta’lim sifatini ko‘tarishga, ona tili ta’limidan ko‘zlangan maqsad-vazifalarga erishish imkoniyatlarini oshirishga va, nihoyatuning mavqeyini ko‘tarishga yordam berishi shubhasiz.

Adabiyotlar

1. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX сессиясида сўзлаган нутқидан, 1997 йил 29 август. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.7.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. Усмонова К. Уй вазифаси долзарб муаммо. // Тил ва адабиёт таълими. -2007. 2-сон. -Б. 77-79.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

f.f.n. M.T.XUDAYAROVA

Nukus DPI O‘zbek tili kafedrasasi katta o‘qituvchisi

D.XASANOVA
NDPI talabasi

Dars shunday markazki, unda o‘qituvchining har bir nutqi, tafakkuri va harakatlari shu markaz atrofida aylanib, yana unga qaytib keladi. Har bir dars bola nutqini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Shunday ekan, nutq madaniyatini shakllantirishda ta’lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatida muomala odobini

хар сафар оригинал эшитиладиган халқчил поэтик тилига ҳам боғдик”⁵

Миртемир шеърияти тилидаги тақрорий сўзлар икки хил характерлидир. Уларнинг бир гуруҳи тилда аввалдан мавжуд, одатий тақрорий сўзлар бўлса, бошқа бир гуруҳи шоирнинг ўзи уюштирган, шакллантирган тақрорий сўзлардир. Одатий тақрор сўзлар кундалик нутқда, турли услублар ва жанрларда тез-тез кўпланиб тургани учун улар ифодалайдиган услубий маънолар шоир ўзи шакллантирган тақрорий сўзлар ифода этувчи услубий маънога нисбатан кучли эмас. Чунки ижодкор ўзи яратган тақрорланишда окказионаллик хусусияти ҳам мавжуд бўлиб, китобхон диккатини ўзига кучлироқ жалб қиласиди.

Умуман олганда, Миртемир шеъриягыда такрорий сүзларнинг қўлланилиши салмоқли бўлиб, буларнинг барчаси бадиийлик ва образлилик учун хизмат қилган. Шоир такрорий сўз сифатида асосан от, сифат, феъл сўз туркмларидан кўпроқ фойдаланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов Наим. Хотира тўлқинлари.// Миртемир замондошлари хотирасида. Т.: 1982. 7.
 2. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. -Т.: Шарқ, 1999. 100.
 3. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. -Т.: Ўзфанақаднашр, 1963. 88.
 4. Миртемир. Асарлар. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. 329. (Бундан кейинги шеърий парчалар шу нашрдан олинади. Асарнинг жилди ва саҳифасини қавс ичида кўрсатиш билан чекланамиз).
 5. Аскад Мухтор. Устознинг табаррук ўрни. // Миртемир замондошлари хотирасида. Т.: 1982. 33.

МУНДАРИЖА

Ибрагимов Ю.М. Сўз мулкининг соҳибқорони.....	3
Хамдамов У. Қодирий насли тили хусусида.....	8
Қодироқ Қ.А. 20-йиллар ўзбек тилшунослиги морфологиясида туб ва ясама сўз масаласининг изохланиси.....	11
Yuldasheva Sh., Klicheva M., Yangiboyeva G. Ona tilidan uygazifalarni takomillashtirish.....	14
Yuldasheva Sh., Kupalova G., Gulmanova Q. Kommunikativ muloqot va o'quvchi faolligi.....	17
Yuldasheva Sh., Urazbayeva D. Ona tili ta'limi va xorijiy tajribalar.....	20
Yuldasheva Sh., Urazbayeva D. Uy vazifasi va innovatsiya.....	23
Xudayarova M., Xasanova D. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish.....	29
Худаярова М., Рұзметова Ш. “Бобурнома” асарида қўлланган антропонимлар.....	31
Худаярова М., Авазова Д. Навоий асарларида қўлланнигтан таом номлари.....	34
Жалилов С., Атиязов С. Ўзбек тили соҳалар лексикаси тадқиқи.....	37
Nosirov A., Norboeva G. Kompozitsion vositalar ifodasi.....	41
Davletmurodov I., Tursunova G. Ogahiy g'azallarida dialogik nutq.....	44
Davletmuraov I., Annageldiyeva G. Muhammadrizo Ogahiy g'azallarida lafziy san'atlarning qo'llanilishi.....	47
Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимовнинг “Ўзбеклар” хикоясида характер яратиш маҳорати.....	50
Янгибаева Н. Навоийнинг адабий-эстетик қарашлари.....	54
Ҳакимжонова Р. Замонавий ўзбек адабиётида сажъ санъатининг қўлланилиши.....	58
To'liboyev X., Masharipova U. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi talqin vasvir o'ziga xosligi.....	63
Аҳмедова Н. Ўқувчилар билан ишлаш жараёнида ноанъанавий дарсларни ташкил этиш интенсификация омили.....	66
Юсупов О. Бадиий асарлар таржимасида контекстнинг ўрни ва аҳамияти.....	69